

**CHO'LTON SHE'RIYATINI TAHLILIY MATN YORDAMIDA  
MAKTABLARDA O'QITISH ("YURT YO'LI" SHE'RI MISOLIDA)**

*Tamara Xaitboyeva*

*UrDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi magistranti*

Cho'lponning "Yurt yo'li" she'rida Vatan mustaqilligi uchun kurashayotgan inson tasvirlangan.

"Uzoq... og'ir yo'lga chiqqan yo'lchimen..." misrasiga e'tibor beraylik. Shoир uzoq va og'ir yo'lga chiqqan yo'lchi. Nega yo'l uzoq va og'ir? Chunki g'aflatda, tutqunlikda ezilgan xalqni ozodlik yo'liga chiqarish va bu yo'lni birinchilardan bo'lib bosib o'tish juda mashaqqatlidir. Yo'lchi – o'tkinchi. Umrimiz yo'lida ham turli sinovlarni kechib o'tguvchilardirmiz.

She'rning ikkinchi misrasida shoир umid bog'laganini aytadi. Bu esa yulduz. Nega, aynan, yulduz? Cho'lpon taxallusining o'zi "yo'lchi yulduz", "tong yulduzi" degani. Demak, qorong'u, og'ir va uzoq yo'ldagi to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yulduz – cho'lponlar. Cho'lpon, nafaqat, o'zini, balki millat uchun, erk uchun yozadigan ijodkorlarni yo'lchi yulduzga qiyoslaydi.

Uchinchi misrada shoирning maqsadi aniqlashtiriladi. Shoир o'zini yurtning pok istakli kuchi ekanini aytmoxda. Pok istakli kuch nima? Buadolat, erk, ozodlik tuyg'ularidir. Bunday ne'mat uchun kurashuvchilar pok niyatli kuchlardir. Bu kuchni bostirganlari sayin kuchayadi, avj oladi. Keyingi misraga kelib shoир fikrini xulosalaydi. Shoирdek fidoyilar o'zini baxsh etishi maqsadga erishishdir. Yulduzning tugalishi – kunduzning boshlanishi, ya'ni yorqin, hur kunlarga erishish ayttilmoqda. Shu yerda shoирni o'z taqdirining bashoratchisi ham deya olamiz. Bunda shoир- yulduz. Yulduz so'nishi – qatag'on qilinishi, o'ldirilishi. Kunduz kelishi – xalq o'z erkini o'ylay boshlashi, millat asta-sekin qo'zg'alishi va yo'lchiga aylanishlaridir.

She'rning ikkinchi bandiga o'tib Cho'lpon o'zining "kuchlanish" sabablarini sanab o'tadi. Shoир daraxtdek bo'lsa, tomirlari olov kabi qaynagan kechmishlardan

sug‘orilgan. Yoki insoniy tomirlarida oqayotgan qon olov kabi qaynagan kechmishlardandir. Kechmish so‘ziga e’tibor beraylik. Bu yerda tarix, o‘tmish aytilmoqda. Birinchi tarix ma’nosи buyuk ajdodlari bor avlod aytilsa, ikkinchi tarixda mustabid tuzumning o‘rnatalishi, zug‘umlardan qaynagan olov qonlardir. Olov qon bu yerda bir tarafdan buyuklik, ikkinchi tarafdan alam va g‘azabdan qizigan qon. Qon esa butun vujudning asosiy vositasidir. Bu qon uning bilagida alamdan, g‘azabdan, jaholat-u razolat kishanlaridan qaynagan qon irg‘ib, chopib, oyoqlarini faqat olg‘a yurishga undaydi. So‘nggi ikki misrada yana o‘zining yo‘lchi ekanligini esga oladi. Istaklarini bu yo‘ldan oladi. Hurlik yo‘lidan yurib yangidan yangi istaklari kurtak ochadi. Cho‘lponning mazkur she’riga Usmon Nosirning “Yo‘lchi” she’ri hamohangdir. Ikkalasida ham “yo‘l”, “yo‘lchi” obrazlari mavjud bo‘lib, inson hayot yo‘lidan qay maqsadda foydalanishi turli badiiy jilolarda aks etgan.

Cho‘lponning ushbu “Yurt yo‘li” she’rida o‘tmish va kelajak chambarchasligi, yurt uchun yo‘lga chiqqan yo‘lchi obrazi gavdalangan.